

REABILITATSIYA ETILGAN SHAXSLARNING MA'NAVİY ZARARLARINI QOPLASH: HUQUQIY ASOSLAR, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI



Asqarov Mirzoxid Mirjalol o'g'li

yuridik fanlar bo'yicha (PhD) falsafa doktori,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rehabilitatsiya qilingan shaxslarga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash bilan bog'liq huquqiy va amaliy muammolar tahlil etilgan. Milliy qonunchilikda mavjud mexanizmlar, ularning amaldagi qo'llanilishi, sud amaliyotidagi murakkabliklar hamda xalqaro tajribalar asosida ma'naviy zarar miqdorini aniqlashdagi mezonlar ko'rib chiqilgan. Maqolada amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, xususan, zarar miqdorini aniqlashda shaxsning yoshi, jinsi, ayblov tabiati, jamoatchilik rezonansi va boshqa shu kabi omillarni e'tiborga olish bo'yicha aniq va asosli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: rehabilitatsiya, ma'naviy zarar, zarar miqdori, sud amaliyoti, qonunchilik, huquqiy mexanizm, Fuqarolik kodeksi, inson huquqlari, adolat.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые и практические проблемы, связанные с возмещением морального вреда, причинённого реабилитированным лицам. Рассмотрены существующие механизмы, предусмотренные национальным законодательством, особенности их применения, сложности судебной практики, а также критерии определения размера морального вреда на основе международного опыта. В статье предложены конкретные и обоснованные рекомендации по совершенствованию действующего законодательства, в частности, учёт возраста, пола, характера предъявленного обвинения, общественного резонанса и других факторов при определении размера вреда.

Ключевые слова: реабилитация, моральный вред, размер вреда, судебная практика, законодательство, правовой механизм, Гражданский кодекс, права человека, справедливость.

Abstract. This article analyzes the legal and practical issues related to the compensation of moral damages caused to rehabilitated individuals. It examines the mechanisms provided in national legislation, their practical application, challenges observed in judicial practice, and the criteria for determining compensation amounts based on international experience. The article offers specific and well grounded recommendations for improving existing legislation, particularly emphasizing the need to consider factors such as the individual's age, gender, the nature of the accusation, public resonance, and similar circumstances when determining the amount of moral damages.

Keywords: rehabilitation, moral damages, amount of compensation, judicial practice, legislation, legal mechanism, civil code, human rights, justice.

Aytish joizki, so'nggi yillarda mamla-katimizda inson huquqlari hamda fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar izchil va jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sud-huquq sohasida xolislik va adolat prinsiplarini qaror toptirish, shuningdek, qonunga xilof ravishda jinoiy ta'qibga uchragan fuqarolarga nisbatan qabul

qilinayotgan oqlov hukmlari hamda ularni reabilitatsiya qilish bilan bog'liq masalalar huquqiy davlat qurish jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bunday huquqiy jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi, tabiiyki, faqat huquqiy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmay, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik mexanizmlarning ham o'zaro uyg'un-

likda faoliyat yuritishini talab etadi. Xususan, reabilitatsiya qilingan shaxslarga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplashga oid huquqiy munosabatlarni adolat mezonlari asosida hal etish, haligacha amaliy yechimini topmagan dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan ma'naviy zararlarni qoplash masalasi so'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston, balki Rossiya va boshqa xorijiy davlatlar huquqshunos olimlarining ilmiy izlanishlarida ham keng yoritilmoqda. Rossiyalik olim A.V. Smirnova o'z tadqiqotlarida ma'naviy zarar uchun minimal kompensatsiya miqdorini belgilash mumkinligini, biroq uning maksimal miqdori qonun bilan cheklanmasligi kerakligini asoslab bergan [11]. Bu yondashuv, sud amaliyotida adolat va oqilonalik tamoyillarini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim nazariy asos hisoblanadi.

I.V. Kutuzov reabilitatsiya qilingan shaxslar, odatda, juda kam miqdorda kompensatsiya olayotgani va tovon to'lash jarayonining sust kechayotganini ta'kidlab, amaldagi tizimni samarasiz deb baholaydi [9]. Xuddi shu yo'nalishda V.V. Yegorov sudlar tomonidan ma'naviy zarar miqdorini belgilashda subyektiv yondashuvlar ustuvorligini tanqid qilib, yagona metodologik tizim ishlab chiqish zarurligini ilgari suradi [16]. V. Vladimirova esa reabilitatsiya institutni jinoyat-protsessual tizim doirasida ko'rish lozimligini ta'kidlaydi, chunki bu da'volar davlatning noqonuniy harakatlari natijasida kelib chiqadi [8]. Shu bilan birga, L.D. Turshuk va M.N. Selivra o'z tadqiqotlarida G'arb mamlakatlarida ma'naviy zarar uchun kompensatsiya miqdorini aniqlashda ball tizimi va maxsus kataloglardan foydalanish amaliyotini qayd etib, bunday yondashuv shaxsga yetkazilgan zararni obyektiv baholash imkonini berishiga urg'u beradilar [12].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1022-moddasi [10] va Oliy sud Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 7-son qarorida [7] sudlar ma'naviy zarar uchun tovon miqdorini belgilashda jinoyatchining aybi, jabrlanuvchining ruhiy holati va boshqa e'tiborga molik holatlarni hisobga olishlari shartligi belgilangan. Shu kabi qoidalar Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1100 – 1101-moddalarida [13] va Oliy sudi

Plenumining 2022-yil 15-noyabrdagi 33-son qarorida [14] ham o'z ifodasini topgan.

Amaldagi qonunchilikda reabilitatsiya qilingan shaxslarga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash bilan bog'liq munosabatlar qaysi turdagi sud yurisdiksiyasi – fuqarolik yoki jinoyat-protsessual doirada ko'rilishi yuzasidan yagona huquqiy yondashuv mavjud emas. To'g'ri, sud-tergov idoralari jinoyatga oid ishlarni ko'rib chiqishda biror-bir xatoga yo'l qo'ymaydi, deb kafolat berish imkoni yo'q. Shu bois amaldagi qonunchilik fuqarolarning huquqlarini tiklash, ayniqsa, noqonuniy jinoiy ta'qibga uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish masalalariga qonuniy yon bosadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida [5] "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi", deb qayd etilgan.

Ushbu qoidaga yaqin norma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasida ham belgilangan. Unga ko'ra, "Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir", 22-moddasida "...Ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi lozim", 23-moddasida "...Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Shuningdek qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak" [6], deb qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 302–313-moddalariga muvofiq, reabilitatsiya qilingan shaxsning zararni qoplash (ma'naviy zararni pul ko'rinishida qoplashdan tashqari), mehnat, pensiya, turar joy va boshqa huquqlarni tiklash to'g'ri-

risidagi talabi jinoyat-protsessual tartibda sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oqlangan shaxslar JPKning 511-moddasiga ko'ra birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudlari hukmlarining, ajrimlarining oqlash sabablari va asoslariga daxldor qismi ustidan taftish tartibida shikoyat berishga haqlidir.

Shu bilan birga, reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan ma'naviy zarar bilan bog'liq masalalar fuqarolik sud yurituvini orqali (*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 7-son qarori, 9-bandi [7]*) amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu masala, umuman olganda, reabilitatsiya qilingan shaxsning ma'naviy zarari qaysi turdagi sud yurisdiksiyasida (fuqarolik yoki jinoyat-protsessual) ko'rinishi katta ahamiyatga ega emasdek ko'rinishi mumkin. Biroq, bu joyda nazardan chetda qoldirib bo'lmaydigan muhim huquqiy jihat bor, ya'ni reabilitatsiya – bu davlat va fuqaro o'rtasidagi ommaviy-huquqiy munosabatdir, chunki shaxs davlat organlarining noqonuniy xatti-harakati tufayli jabr ko'radi.

Fuqarolik ishlari esa, asosan, teng huquqli taraflar o'rtasidagi xususiy-huquqiy munosabatlar asosida yuritiladi. Shu bois, reabilitatsiya masalalari faqat fuqarolik ishlari doirasida ko'rinishi natijasida davlatning ommaviy-huquqiy javobgarligi soya ostida qolishi, jabrlanuvchi fuqarolar esa to'liq huquqiy himoyadan mahrum bo'lishi xavfi yuzaga keladi.

Oqibatda, sud jarayonida mol-mulkka oid zararni qoplash, mehnat, pensiya, turar joy va boshqa huquqlarni tiklash to'g'risidagi talablar avtomat tarzda qonuniy va asosli deb hisoblanadi. Ammo ma'naviy zararni qoplash masalasida reabilitatsiya qilingan shaxs o'ziga yetkazilgan ma'naviy va jismoniy azoblarning darajasini ko'rsatuvchi obyektiv ma'lumotlarni hamda boshqa holatlarni isbotlashi kerak bo'ladi.

Chunki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Ma'naviy

zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 7-son qarorida shu kabi talablar belgilangan. Sud amaliyoti tahlillariga ko'ra ham sud ishda isbotlangan va tegishli hujjatlar bilan aniqlashtirilgan ma'lumotlarga va dalillargagina tayanib qaror qabul qiladi.

Olimlar o'rtasida da'voning fuqaroviy-huquqiy tabiati ko'p yillardan buyon muhokama qilib kelinadi. V. Vladimirovaning fikricha, fuqaroviy da'voning reabilitatsion institut sifatidagi tabiati jinoyat orqali yetkazilgan zarardan kelib chiqadi. Shuning uchun fuqaroviy da'voga jinoyat-protsessual institut sifatida qarash va uni jinoyat-protsessual ish yurituvini doirasida hal etish lozim [8]. I.V.Kutuzovning qayd etishicha, "ko'pincha, reabilitatsiya qilingan shaxslar juda kichik miqdorda kompensatsiya oladi, tovon to'lash jarayoni esa juda uzoq davom etadigan sud ishlariga aylanadi. Bundan tashqari, shaxsning o'zi ma'naviy zarar yetganini va uning noqonuniy jinoiy ta'qib bilan sababiy bog'liqligini isbotlashiga to'g'ri keladi" [9].

Yuqoridagi kabi holatlarda reabilitatsiya qilingan shaxs fuqarolik munosabatlarining bir ishtirokchisiga, ya'ni oddiy bir da'vogar maqomiga aylanib qoladi. Endi u davlat tomonidan noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortilgan, huquq va erkinliklari qonunga xilof ravishda buzilgan shaxs sifatida emas, balki boshqa da'vogarlilar bilan teng maqomdagi shaxs sifatida buzilgan huquqlarini isbotlashi lozim bo'ladi.

Bunday huquqiy yondashuv reabilitatsiya institutining asl mazmun-mohiyati va maqsadlariga zid bo'lib, aybsizligi sud tomonidan rasman tan olingan shaxsdan o'zining ma'naviy zararini isbotlashni talab qilish uni nohaq ravishda qaytadan "aybdor" rolini bajaruvchi maqomga qo'yadi. Bu esa reabilitatsiyaning asosiy vazifasi bo'lmish shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini va buzilgan huquqlarini to'liq tiklash prinsipiga zid kelib, amaliyotda aybsiz deb topilgan fuqarolar uchun adolat mezonlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi omillar sababli ma'naviy zararni baholash huquqini qo'llash amaliyotida eng murakkab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Sudlar uchun moddiy ziyonni hisoblash nisbatan oson kechadi, ya'ni ish haqi, pensiya yoki musodara qilingan mol-mulkning bozor narxi aniqlanadi. Biroq, ma'naviy, ruhiy azobning narxi yo'q, chunki

har bir insonning ruhiy holati va azobni hazm qilish darajasi turli xil bo'lib, psixologik, fiziologik va boshqa individual omillarga asoslanadi.

Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1022-moddasida ham belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra "...Ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi. Zararni qoplash miqdorini aniqlashda oqilonalik va adolatlilik talablari e'tiborga olinishi lozim.

Jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyati ma'naviy zarar yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan baholanadi..." [16].

Ayrim shaxslar uchun II Olari ma'muriy bino-siga chaqirilishi, bino tashqarisida kutib turishi yoki uyida, ofisida tintuv o'tkazilishi biroz noqulaylik keltirib chiqarishi, ortiqcha hissiyotga berilmasligi tufayli u bundan ko'p zarar ko'rmasligi va bo'lib o'tgan ishlarni og'ir qabul qilmasligi mumkin, lekin boshqa bir inson uchun esa bu ishlar batamom ruhiy cho'kishga, qattiq iztiroblarga, turli nevrologik kasalliklarga chalinishga, nafaqat o'ziga, balki boshqa oila a'zolariga ham katta ma'naviy ziyon yetkazishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun amaldagi qonunchilikda kompensatsiya miqdorini belgilash sudlarning shaxsiy bahosiga havola qilingan.

Moddiy ziyonni aniqlash holatida, aniq ko'rsatkichlarga tayanilsa, ma'naviy zararining me'yori har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy, ruhiy holati, kasbiy faoliyati, oilaviy muhiti va boshqa individual omillarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli sudlar bunday ishlar yuzasidan qaror chiqarishda subyektiv mulohazalarga, ishdagi alohida holatlarga va ichki ishonchga tayanadi.

To'g'ri, har qanday toifadagi shaxs, ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, jinoiy ta'qib oqibatida bir qator o'zaro o'xshash ma'naviy ziyonlarni boshdan kechirishlari mumkin. Xususan: ozodlikdan mahrum qilingan davrida oila a'zosidan birining yoki bir nechtasining vafot etishi; ularning so'nggi kunlarida yonida bo'lmasligi; e'tiqod masalalariga ko'ra, rozi-rizolik ololmay qolishi; dafn marosimlarida ishtirok etmasligi; insoniy qadr-qimmatining

kamsitilishi; aybsizligini isbotlash jarayonida cheksiz ruhiy iztirob va xavotirni boshdan kechirishi; jamiyat va yaqinlarining ishonchini qayta tiklash zarurati tufayli ichki ruhiy bosimning kuchayishi; yaqin qarindosh va do'stlar bilan munosabatlardagi uzilishlar; shuningdek, turli tibbiy omillar (uyqusizlik, depressiya, o'z-o'ziga ishonchsizlik va hayotga qiziqishning pasayishi) kuzatilishi va boshqalar.

Biroq, bizningcha, ma'naviy zararni baholashda har bir shaxsning ijtimoiy maqomi, jamiyatdagi roli va uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy kapital darajasi muhim mezon sifatida inobatga olinishi lozim. Chunki, Konstitutsiyada barcha fuqarolar teng huquqli ekanligi belgilangan bo'lsa-da, noqonuniy jinoiy ta'qib oqibatida kelib chiqadigan ma'naviy yo'qotishlar miqdori, shaxsning jamiyatdagi nufuzi, faoliyat ko'lami va ijtimoiy ta'sir doirasiga qarab turli xil bo'lishi tabiiy.

Shunday ekan, nazarimizda, ma'naviy ziyon miqdorini belgilashda "bir o'lchovli yondashuv"dan voz kechib, shaxsning jamiyatdagi funksiyasi, kasbiy (ilmiy) faoliyati, ijtimoiy ta'siri, obro'-e'tibori, qolaversa, uning ko'rayotgan zarari kelajakda nafaqat o'zi va oilasi, balki butun bir jamiyat uchun qanday yo'qotishlarga olib kelishini ham baholanishi lozim.

Shuningdek, shaxsning jamiyatdagi "ijtimoiy qiymati"ni baholash ma'naviy zararni baholashning muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sud amaliyotida ushbu yondashuvni qonuniylashtirish ma'naviy zararni xolis baholashga xizmat qilib, ijtimoiy adolatning yanada to'liq amalga oshirishini ta'minlaydi. Shu tariqa, ma'naviy zararni belgilashda har bir shaxsning o'ziga xos tomonlari, ya'ni ijtimoiy maqomi, ruhiy holati, oilasi va kasbiy faoliyati hisobga olinishi zarur.

Yuqoridagi tahlillar va amaliy misollar asosida aniqlangan muammolarni bartaraf etish, sudlar tomonidan ma'naviy zarar hamda tovon miqdorini belgilash jarayonida xolislik, huquqiy aniqlik va adolat mezonlarini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy adolatni qaror toptirish maqsadida quyidagi xulosalar hamda ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzurida "Reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan zararlarni baholash va tovon miqdorini

belgilash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi idoralararo komissiya" faoliyatini tashkil etish zarur. Bu komissiya moddiy va ma'naviy zarar miqdorini belgilashda yagona mezonlarni joriy qilish orqali turli idoralar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

2. Sudlar tomonidan rehabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan ma'naviy zarar miqdorini aniqlash va belgilashda, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan umumiy mezonlardan tashqari, quyida keltirilgan qo'shimcha omillarga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim:

rehabilitatsiya etilgan shaxsning jinsi va yoshi (voyaga yetgan yoki yetmaganligi)ga. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar hamda yoshlar (xususan, voyaga yetmaganlar) qonunga xilof ravishda qamoqda saqlanganda yoki jinoiy ta'qibga uchraganda erkaklar va katta yoshdagi shaxslarga nisbatan kuchliroq ruhiy va ma'naviy ta'sirni his qiladilar;

ilgari sudlangan yoki sudlanmaganligiga. Ilgari sudlanmagan shaxslar, odatda, jamiyatda huquqbuzarlikdan xoli deb qabul qilinadi. Shu bois, ularning aybsiz bo'la turib jinoiy ta'qib qilinishi yoki qamoqda saqlanishi nafaqat shaxsiy hayotida, balki fuqarolik pozitsiyasida ham og'ir oqibatlariga olib keladi. Bu holatda ma'naviy zarar miqdori, sudlangan shaxslarga nisbatan yuqori baholanishi asosli bo'ladi;

qanday turdagi jinoyatni sodir etganlikda noqonuniy ayblanganligiga. Jinoyatning tabiati va jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatiga qarab, shaxsga nisbatan munosabat ham shakllanadi. Masalan, terrorizm, ekstremizm, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni sodir etganlik bilan bog'liq noqonuniy ayblovlar, hatto shaxs oqlangan taqdirda ham, jamoatchilikda unga nisbatan salbiy munosabat

to'liq yo'qolmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bizningcha, shaxs noqonuniy ayblangan jinoyat turi ham ma'naviy zarar miqdorini aniqlashda asosiy mezonlardan biri sifatida inobatga olinishi kerak;

tayinlangan jazo turiga. Jazo turi shaxsning erkinligi, sha'ni, hayoti tarzi va ijtimoiy munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadigan muhim omildir. Masalan, ozodlikdan mahrum etish yoki ozodlikdan cheklash kabi jazo turlari shaxsning ma'naviy azoblanish darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ozodlikdan mahrum etishda jismoniy izolyatsiya, shaxsning muqaddas huquqi bo'lgan erkinlikdan mahrumlik va taqiqlar ko'proq bo'ladi, shu bois bu holatdagi ma'naviy zarar miqdori boshqalariga nisbatan yuqoriroq baholanishi lozim;

asossiz tayinlangan jazoning muddati va jazoni ijo etgan muassasa turiga. Shaxsning qancha muddat davomida noqonuniy javobgarlikka tortilib, tergovma-tergov, sudma-sud yurgani, o'tagan jazo muddati, qanday sharoitda ozodlikdan mahrum etilganligi ma'naviy zarar uchun tovon miqdorini aniqlashda bevosita ahamiyat kasb etadi, bu ham inobatga olinishi kerak;

ishning jamoatchilik orasidagi rezonansiga. Ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan, ijtimoiy tarmoqlarda muhokamaga sabab bo'lgan ishlarda shaxsning jamiyat oldidagi obro'siga yetkazilgan zarar miqdori boshqa holatlarga nisbatan ancha katta bo'ladi. Jamoatchilik rezonansi ruhiy iztirobni yanada kuchaytiradi, chunki bunday shaxslar nafaqat huquqiy tizim, balki jamoat fikrining ham bosimiga duch keladi. Shu sababli, bunday holatlarda ma'naviy tovon miqdori oshirilgan holda belgilanishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan manbalar

1. IIV huzuridagi Tergov departamentining 2021–2023-yillar bo'yicha "1Я" hisoboti (hujjat asl nusxasi).
2. Адхамов А. Вопросы подведомственности и подсудности взыскания компенсации морального вреда в судебном порядке. <https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/6733>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.10.2025-yil)
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotnomasi (hujjat asl nusxasi).
4. Samarqand viloyati hokimi tomonidan Bosh vazir nomiga yuborilgan rehabilitatsiya etilgan shaxslarga qoplanishi lozim bo'lgan zararlarning moliyaviy manbalarini aniqlashda amaliy yordam so'rash mazmunidagi xati (hujjatning ko'chirma nusxasi).

5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 20-modda. <https://constitution.uz/ /clause/index#section7>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025-yil)
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/ docs/111460>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025-yil)
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2000-yil 28-apreldagi 7-son qarori 9-bandi. <https://lex.uz/docs/1449509>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 18.10.2025-yil)
8. Владимирова В. Компенсация морального вреда – мера реабилитации потерпевшего в российском уголовном процессе. – М.: Вольтерс-Клувер, 2007. – 165 с. <https://cyberleninka.ru/article/n/2009-01-038>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 18.10.2025 yil)
9. Кутузов И.В. Возмещение морального вреда реабилитированным лицам. <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmeschenie-moralnogo>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 18.10.2025-yil).
10. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1022-modda. <https://lex.uz/ru/docs/1805526920>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025-yil)
11. Смирнова А.В. Компенсация морального вреда. <http://www.admintzr.ru/novosti /?ID =7361>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025-yil)
12. Туршук Л.Д., Селивра М.Н. Issue of determining the amount of compensation for moral damage through the prism of retrospective and modernity. <https://w-science.com/temp /3a89d2da9729499335a3fb2dbf4f05dc.pdf>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025-yil)
13. Гражданский кодекс Российской Федерации (часть вторая) от 26.01.1996 N 14-ФЗ (ред. от 24.06.2025). Статья 1101. Способ и размер компенсации морального вреда. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_9027. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 21.10.2025-yil)
14. Постановление Пленума Верховного Суда РФ от 15.11.2022. N 33 "О практике применения судами норм о компенсации морального вреда." https://www.consultant.ru /document/cons_doc_LAW_431485/c3ae0e20. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025-yil)
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori. <https://www.lex.uz/docs /6523569>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025- yil)
16. Егоров В.В. Проблемы компенсации морального вреда в процедуре реабилитации. <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-kompensatsii>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:21.10.2025-yil)

